

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

MURATOVA FOTIMA NORMAXMAT QIZI

**TALABALIK DAVRIDA «TALABA POZITSIYASI» NAMOYON
BO‘LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
psychological science**

Muratova Fotima Normaxmat qizi

Talabalik davrida «Talaba pozitsiyasi» namoyon bo'lishining psixologik
xususiyatlari..... 3

Muratova Fatima Normaxmat qizi

Психологические особенности проявления «Студенческой позиции» в
студенческий период..... 25

Muratova Fotima Normaxmat qizi

Psychological features of the of the "Student position" during the student
period 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 54

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

MURATOVA FOTIMA NORMAXMAT QIZI

**TALABALIK DAVRIDA «TALABA POZITSIYASI» NAMOYON
BO‘LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PHD/P932 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna**
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: **Qodirov Kamoliddin Botirovich**
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ubaydullayev Nuriddin Toxir o'g'li
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)

Yetakchi tashkilot: **Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.202. P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «___» _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, psixologiya fanlari
doktori (DSc), professor

N.B.Atabaeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, psixologiya fanlari
doktori (DSc), professor

Z.T.Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, psixologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'limni rivojlantirish eng muhim vazifa bo'lib, shu orqali istiqbolda talabaning ijtimoiy mavqeini egallay olishi, o'z-o'zini anglash, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olish, o'zini rivojlantirish psixologik qonuniyatlarini, o'zini-o'zi belgilash jarayonini tezlashtirish shartlari va mexanizmlarini chuqur o'rganishni taqozo etadi. Talabalarning kelajakdagi karyerasi va mustaqil faoliyati uchun ushbu qoida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki kasbiy samaradorlikning eng muhim sharti sifatida talaba shaxsida o'z pozitsiyasiga ega bo'lish muhimdir. YUNESKO statistika instituti (YuIS) ma'lumotlariga ko'ra, «2030-yilga borib butun dunyo bo'ylab boshlang'ich va umumiy o'rta ta'limni ta'minlash uchun 69 milliondan ortiq mahoratli pedagoglarga ehtiyoj yuzaga keladi»¹. Hozirgi mutaxassisdan kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan uslubiy va amaliy-texnologik asoslarini bilish hamda o'zini-o'zi belgilashi talab qilinadi.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida shaxsiy va professional pozitsiyani faoliyat standartlari asosida amalga oshirishda mas'uliyatli va qadriyatli munosabat katta ahamiyatli bo'lishi bilan tasniflanadi. Bu borada talaba pozitsiyasini shakllantirishning asosiy psixologik shartlari o'zini-o'zi belgilash qobiliyati, reflektiv-uslubiy va psixologik munosabatlar tizimini tahlil qilish, maqsadlarni to'g'ri shakllantirish, ayniqsa, aniqlangan bo'shliqlarda o'z-o'zini baholash natijalari talabalarning shaxsiy va kasbiy pozitsiyasini rivojlantirish ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'lim tizimida talabalarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish, talabaning ijtimoiy mavqeini egallay olishi, o'z-o'zini anglash, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olish, o'zini rivojlantirishning psixologik qonuniyatlarini va o'zini-o'zi belgilay olish masalalari davlat siyosati darajasida qaralayotganligi muhim bo'lib, mazkur muammoning zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «...jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy pozitsiyasiga ega yoshlarni tarbiyalash»² ustuvor vazifa etib belgilanib, zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muhim asos bo'la oladi.

2023-yil 1-maydagi O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2021-yil 13-iyuldagi PF-6260-son «Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2018-yil 27-iyundagi PF-5466-son

¹<https://en.unesco.org/themes/teachers>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni. – <https://lex.uz/docs/-5841063>

«Yoshlar – kelajagimiz» davlat dasturi, 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi Farmonlar, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-martdagi 132-son «Yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2021-yil 18-yanvardagi 23-son «O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida», 2019-yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarni oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlar va boshqa me‘yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.«Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston psixolog olimlaridan Sh.R.Barotov, M.T.Isakova, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, B.R.Qodirov, K.B.Qodirov, N.Dj.Sagindikova, M.Zokirova, O‘.U.Shukurova, E.G‘.G‘oziyev va boshqalar tomonidan talabalik davrining psixologik xususiyatlari aynan oliy maktab jarayonlarida o‘ziga xos tarzda rivojlanishi, tafakkurning o‘ziga xos xususiyatlari, kasbiy faoliyat, talabalarning kasbiy shakllanishida ijtimoiy va psixologik omillar, talabalarda mas‘uliyat hissi, talabalik davrida affiliatsiyaning namoyon bo‘lishi, talabalarda o‘qish motivlari, kasbiy xususiyatlar rivojlanishining o‘ziga xosliklari, kasbiy kamolot va uning bosqichlari kabi masalalarni o‘rganish yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan N.G.Alekseev, B.S.Bratus, E.V.Burmistrova, M.V.Isayev, S.I.Krasnov, A.I.Savenkov, V.I.Slobodchikov, I.A.Savchenko, T.M.Buyakas, E.E.Kravsova, G.Yu.Lyubimova, V.Ya.Lyaudis, N.S.Pryajnikov va boshqalar tomonidan talabalarning kasbiy tayyorgarligini tashkil etish jarayoni, kasbiy anglash tizimida o‘quv-kasbiy ustanovka, psixolog talabalarda muhim kasbiy shaxslilik sifatlarining trening vositasida rivojlanishi, OTM ta‘lim jarayonida pedagog-psixologlarda muhim kasbiy sifatlarining rivojlanishi, talabalarning kasbiy rivojlanishini psixologik qo‘llab-quvvatlash muammolari bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilgan.

Xorij tadqiqotchilaridan L.M.Mitin, L.B.Shneyder, R.A.Fokin, J.H.Golland, B.R.Hergenahn, B.R.Lindeman, H.W.Marsh, R.A.Mers, A.Thompson va boshqalar ilmiy izlanishlarida turli yo‘nalishlarda talabalarning kasbiy sifatleri rivojlanishi, mutaxassislik bilimlari va malakalarini rivojlantirishda qo‘llaniladigan texnologiyalar va usullar masalalari tadqiq etilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Ilmiy tadqiqot ishi Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrası

istiqbol rejasiga kiritilgan «O‘zbekiston Respublikasi yoshlarida vatanparvarlikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari» mavzusidagi ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan (2023-2026-yy.).

Tadqiqotning maqsadi: talabalik davrida «talaba pozitsiyasi» namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlarini tadqiq qilish va zaruriy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talaba pozitsiyasida o‘z-o‘zini namoyon qilish, xulq-atvor va ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘ziga munosabat, kognitiv ehtiyojlarning differensial farqlarini o‘rganish;

talabalik pozitsiyasi shakllanishida namoyon bo‘ladigan o‘z-o‘zini namoyon qilishda o‘quv motivatsiyasiga bog‘liq tarzda kurslar kesimidagi tafovutlarni ilmiy tadqiq etish;

talaba pozitsiyasining shakllanishida o‘quv motivatsiyasini oshirish, kasbiy va ijodiy jihatdan rivojlantirish, motivatsion tizimni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali kognitiv, emotsional va xulq-atvor sohasiga ta’sir ko‘rsatishda psixologik yordamning samarali ekanligini asoslash;

boshlang‘ich kurslarda «talabalik pozitsiyasi»ni rivojlantirish maqsadida rivojlantiruvchi dastur ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot obekti sifatida talabalik davrida «talaba pozitsiyasi» namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlarini aniqlash jarayoni olingan bo‘lib, Toshkent Iqtisodiyot va Texnologiyalari Universitetida (116 nafar), Xorazm viloyati Ma’mun Universitetida (90 nafar) va Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat Universitetida tahsil olayotgan (82 nafar) jami 287 nafar talabalar respondentlar sifatida tadqiqotga jalb etilgan.

Tadqiqot predmetini talabalik davrida «talaba pozitsiyasi» namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning metodlari: Tadqiqotda kuzatish metodi, V.V.Stolin, S.R.Panteleyevning «O‘z-o‘ziga munosabat» so‘rovnomasi, A.A.Rean, V.A.Yakunin, N.T.Badmayevalarning moslashtirilgan «Talabalarning o‘quv motivatsiyasini diagnostika qilish» so‘rovnomasi, Yu.E.Aleshina, L.L.Gozman, M.V.Krozning «O‘z-o‘zini namoyon qilish» (SAT) so‘rovnomasi, Shvarsning «Qadriyatlar yo‘nalishi» so‘rovnomasi, hammualliflikdagi (D.U.Abdullayeva, F.N.Muratova)larning «Talaba pozitsiyasining sub’ektiv baholanishi» ijtimoiy-psixologik so‘rovnomasi (IPS) dan foydalanilgan. Olingan natijalarning ishonchlilik darajasi matematik-statistik metodlaridan Kolmogorov-Smirnov Mann-Uitnining U-mezoni, Spirmanning r-korrelyatsiya koeffitsienti, Uilkokson mezonini qo‘llash orqali tasdiqlangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talaba pozitsiyasi shakllanishi diagnostika qilinishiga ko‘ra, o‘z-o‘zini namoyon qilishda vaqtni yo‘naltirish, xulq-atvor va ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘ziga munosabat, kognitiv ehtiyojlarga bog‘liq holda kurslar kesimida farqlar mavjudligi dalillangan;

talabalik pozitsiyasi shakllanishida namoyon bo'ladigan vaqtni taqsimlash, qadriyat yo'nalishi, o'zini namoyon qilishdagi spontanlik, kreativlikning rivojlanishi o'quv motivatsiyasiga bog'liq tarzda kurslar kesimida tafovutlar bo'lishi asoslangan;

talaba pozitsiyasining darajaviy namoyon bo'lishiga ko'ra o'quv motivatsiyasining talaba o'z-o'zini namoyon qilishiga ta'siri tufayli «muloqot», «qochish», «obro'», «kasbiy», «ijodiy», «ta'lim» va «ijtimoiy» motivlarning ta'lim jarayonida «vaqtni yo'naltirish», «qo'llab-quvvatlash», «xulq-atvor moslashuvchanligi», «spontanlik», «o'zini hurmat qilish va qabul qilish», «g'oyalar», «sinergiya», «agressiyani qabul qilish», «aloqa», «kognitiv ehtiyojlar» va «ijodkorlik» ko'rsatkichlari bilan ahamiyatli darajada korellyatsion bog'lanishga ega ekanligi isbotlangan;

talabalik davrida «talaba pozitsiyasi» namoyon bo'lishiga ko'ra ularda maxsus tashkil qilingan rivojlantiruvchi dastur natijasida vaqtni to'g'ri yo'naltirish, xulq-atvor moslashuvchanligi, o'zini qabul qilish, ijodkorlik darajasi va muloqot, obro', ta'lim motivlarini oshirishga erishish isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalik davrida «talabalik pozitsiyasi»ni shakllanishiga ta'sir qiluvchi va rivojlantiruvchi dasturni yordam berishga doir metodika va so'rovnomalar qo'llanilgan;

talabalik pozitsiyasini rivojlantirishga doir uslubiy qo'llanma amaliyotga tadbiq etilgan;

talabalarda o'zini namoyon qilish va talabalik pozitsiyasini rivojlantirishga doir dastur ishlab chiqilgan va ularning kognitiv, hissiy, xulq-atvor sohasiga ta'sir ko'rsatish mexanizmi amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qatnashgan respondentlarning yetarlicha reprezentativligi; olingan empirik miqdoriy ko'rsatkichlarning matematik statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi; tekshiruvlarning bir necha aniq va rejali bosqichlarda hamda turli usullar yordamida amalga oshirilganligi; xulosa, taklif, tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi; tadqiqot maydoni sifatida turli hududlardagi muassasalar tanlangani; barcha oraliq natijalar keng ilmiy jamoatchilik o'rtasida muhokama qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarda «talabalik pozitsiyasi» shakllanishi, ularda o'z-o'zini namoyon qilish, qadriyatlar tizimi, o'ziga nisbatan baholashi va o'quv motivatsiyasi ta'sirini baholash orqali talabalik pozitsiyasining ijtimoiy ahamiyati, talabalar kognitiv, emotsional, xulq-atvor sohasiga ta'sir qilishning psixologik modeli mazmun mohiyati ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati, qo'lga kiritilgan natijalar oliy ta'lim muassalarida «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» fanlarining o'qitilishini mazmunan boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan rivojlantiruvchi dasturdan psixologlar o'z amaliyotida foydalanishlari, malakali xodimlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirishda samarali foydalanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. «Talabalik davrida «Talaba pozitsiyasi» namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini» o'rganishga doir olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

talaba pozitsiyasi shakllanishining diagnostika qilinishiga ko'ra, o'z-o'zini namoyon qilishda vaqtni yo'naltirish, xulq-atvor va ijtimoiy moslashuvchanlik, o'ziga munosabat, kognitiv ehtiyojlarga bog'liq holda kurslar kesimida farqlar mavjudligiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 29-yanvardagi PM-313-sonli buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan. (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 24-yanvardagi 313-a-son ma'lumotnomasi). Natijada talaba pozitsiyasining shakllanishida xulq-atvor va ijtimoiy moslashuvchanlik, o'ziga munosabat, kognitiv ehtiyojlarga bog'liq holda kurslar kesimida farqlarni o'rganish imkoniyati yaratilgan;

talabalik pozitsiyasi shakllanishida namoyon bo'ladigan vaqtni taqsimlash, qadriyat yo'nalishi, o'zini namoyon qilishdagi spontanlik, kreativlikning rivojlanishi o'quv motivatsiyasiga bog'liq tarzda kurslar kesimida tafovutlar bo'lishi asoslangan ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 29-yanvardagi PM-313-sonli buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan. (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 24-yanvardagi 313-a-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalik pozitsiyasi shakllanishida namoyon bo'ladigan o'z-o'zini namoyon qilishda o'quv motivatsiyasiga bog'liq tarzda kurslar kesimida tafovutlarni ilmiy tadqiq etish imkoniyati ochib berilgan;

talaba pozitsiyasining darajaviy namoyon bo'lishiga ko'ra o'quv motivatsiyasining talaba o'z-o'zini namoyon qilishiga ta'siri tufayli «muloqot», «qochish», «obro'», «kasbiy», «ijodiy», «ta'lim» va «ijtimoiy» motivlarning ta'lim jarayonida «vaqtni yo'naltirish», «qo'llab-quvvatlash», «xulq-atvor moslashuvchanligi», «spontanlik», «o'zini hurmat qilish va qabul qilish», «g'oyalar», «sinergiya», «agressiyani qabul qilish», «aloqa», «kognitiv ehtiyojlar» va «ijodkorlik» ko'rsatkichlari bilan ahamiyatli darajada korellyatsion bog'lanishga ega ekanligi isbotlangan; Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 29-yanvardagi PM-313-sonli buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan. (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 24-yanvardagi 313-a-son ma'lumotnomasi). Natijada talaba pozitsiyasining shakllanishida o'quv motivatsiyasini oshirish, kasbiy va ijodiy jihatdan rivojlantirish, motivatsion tizimni to'g'ri yo'naltirish orqali kognitiv, emotsional va xulq-atvor sohasiga ta'sir ko'rsatishda psixologik yordamning samarali ekanligini asoslash imkoniyati yaratilgan;

talabalik davrida «talaba pozitsiyasi» namoyon bo'lishiga ko'ra ularda maxsus tashkil qilingan rivojlantiruvchi dastur natijasida vaqtni to'g'ri yo'naltirish, xulq-atvor moslashuvchanligi, o'zini qabul qilish va ijodkorlik darajasi va muloqot, obro', ta'lim motivlarini oshirishga erishish isbotlangan ma'lumotlar samarali ekanligiga

oid ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 29-yanvardagi PM-313 sonli buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan. (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 24-yanvardagi 313-a-son ma'lumotnomasi). Natijada «talabalik pozitsiyasi»ni rivojlantirish bo'yicha dastur ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot asosiy natijalari bo'yicha 12 ta ilmiy maqola, 4 tasi O'zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan jurnallarda, 2 tasi xorijiy jurnalda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Tadqiqot ishining umumiy hajmi 153 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obekti shakllantirilgan, ilmiy yangiligi bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi yoritilgan, e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Talaba pozitsiyasi shakllanishi va rivojlanishi haqidagi ilmiy manbalarining nazariy tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida talaba shaxsi ijtimoiy qadriyatlarning asosi sifatida o'qitiladigan ta'lim sifatini yangi ta'lim paradigmalari chegarasida boshqarish, universitetda bo'lajak mutaxassisning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida ob'ektiv ma'lumotlar tahlil qilingan. Talabalarda pozitsiyaning o'ziga xos tarzda shakllanishi va mohiyati qadriyatlarga va faoliyat normalarini amalga oshirish usullariga mas'uliyatli munosabat sifatida shakllanishi N.G.Alekseyev, O.N.Burmistrova, E.I.Isayev, S.I.Krasnov, A.A.Nikolayevalar tadqiqotlarida o'rganilgan. Talabalik pozitsiyasi shakllanishida shaxsiy va kasbiy pozitsion qarashlarning ahamiyati tahlil qilingan. O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, har bir shaxsda hayotiy, kasbiy va shaxsiy pozitsiya shakllanishiga atrof-muhit ta'siri, qadriyatlarning shakllanganligi kabi asosiy ko'rsatkichlar ko'proq namoyon bo'lishi kuzatilgan (G.M.Andreyeva, B.D.Parygin, T.B.Savchenko, O.P.Poluxina). Mualliflar ilmiy tadqiqotida talabaning sub'ektiv pozitsiyasi doimiy qiymat emasligi, bu o'z-o'zini takomillashtirishda namoyon bo'ladigan xususiyat bo'lib, ijodkorlik, yaxlitlik, izchillik (uyg'unlik) va nisbiy barqarorlik bilan ajralib turishini, talaba «imkoniyatlari chegarasini» yengib o'tish uchun cheklovlar haqida bilishi muhimligi ta'kidlangan.

Dissertatsiyaning «**Talabalik pozitsiyasining kasbiy sifatlar rivojlanganligiga ta'sirini tashxis etishning metodologik asosi**» deb nomlangan ikkinchi bobida psixologik tadqiqotlarning metodologik asoslari, talabalik davrda «talaba pozitsiyasi» rivojlanishining psixologik xususiyatlarini tadqiq qilish psixodagnostikasi, metod va

metodikalar tavsifi keltirilgan. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida o‘z taqdirini o‘zi belgilash nazariyasi (K.A.Abulxanova-Slavskaya, X.G.Gadamer, S.I.Gessen, M.R.Ginzburg, S.L.Frank, V.E.Frankl, K.T.Yaspers); kasbiy pozitsiya mohiyatini aniqlash nazariyasi (N.G.Alekseev, B.S.Bratus, Y.V.Burmister, M.V.Isaev, S.I.Krasnov, A.I.Savenkov, I.A.Savchenko, V.I.Slobodchikov, R.A.Fokin) B.G.Anan’ev, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, V.V.Davidov, S.L.Rubinshteyn kabi olimlarning determinizm, faoliyat, rivojlanish, ong va faoliyat birligi tamoyillari, B.F.Lomovning shaxsning atrof olamga subektlilik munosabati yondashuvi, shuningdek, universitetda kasbiy shakllanish va shaxsiy rivojlanish nazariyasi (E.F.Zeer, Ye.A.Klimov, Ya.L.Kolominskiy, A.K.Marka, L.M.Mitina, V.Y.Orel, Yu.P.Povarenkov, N.S.Pryajnikov) tashkil qilgan. Tadqiqotda suhbat metodi, shuningdek, V.V.Stolin, S.R.Panteleyevning «O‘z-o‘ziga munosabat» so‘rovnomasi, A.A.Rean va V.A.Yakunin, N.T.Badmayeva tomonidan moslashtirilgan «Talabalarning o‘quv motivatsiyasini diagnostika qilish» so‘rovnomasi, G.Aleshina, Gozman, M.V.Krozning «O‘z-o‘zini namoyon qilish testi» (SAT.), Shvarsning Qadriyatlar so‘rovnomasi, shuningdek, D.U.Abdullayeva, F.N.Muratova hammuallifligidagi «Talaba pozitsiyasining subektiv baholanishi» IPSdan foydalanildi, olingan empirik natijalarning ishonchlilik darajasini tasdiqlashda matematik-statistika metodlaridan Mann-Uitnining U-mezoni, Spirmanning r-korrelyasiya koeffisienti orqali tasdiqlandi.


Dastlab respondentlarda D.U.Abdullayeva, F.N.Muratova hammuallifligidagi «Talaba pozitsiyasining sub’ektiv baholanishi» so‘rovnomasidan foydalanildi. Natijalar quyidagi 1-rasmda aks ettirilgan.



1-rasm. Talabalarning «talaba pozitsiyasi»ni anglashi natijalari


So‘rovnomadagi «talaba pozitsiyasi deganda nimani tushunasiz?» so‘roviga talabalar javobiga ko‘ra, 42 % talaba pozitsiyani his qilishni «talabalikni his qilish» deb tushunsa, 13 % siniluvchi talaba sifatida o‘zini tan oldirish sifatida qabul qilar ekan. Talaba sifatida barcha topshiriqlarni uddalashni 16 % talaba pozitsiya sifatida yoqlasa, ularning 27%i talabalikdagi ijtimoiy faollik sifatida idrok qilishar ekan. Ushbu ko‘rsatkichlarni quyidagi rasmda kuzatish mumkin.

So'rovnomaning keyingi «talabalik pozitsiyasi o'z ichiga nimalarni qamrab oladi?» so'roviga javob berishda talabalarning 48%i bilim olish va rivojlanish bilan bog'lagan bo'lsalar, 14% talaba ijtimoiy o'zini namoyon qilish sifatida baholagan. Shuningdek, talabalik pozitsiyasini barcha narsani uddalash sifatida 18% talaba belgilagan va mutaxassis sifatida o'zini namoyon qilishni 18% talabalar tanlagan.



2-rasm. Talabalarning «Talabalik pozitsiyasi»ni qamrab olinganligini bo'yicha ko'rsatkichlari

So'rovnomadagi talabalik pozitsiyasining rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan holatlarni baholashda talabalar shaxsiy baholashlariga ko'ra, 42% talaba yaxshi bilim olmaslik deya baholagan bo'lsa, 40% talaba o'ziga ishonmaslik, 10% talaba mutaxassislikka qiziqmaslik bilan baholagan va 8% talaba ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni to'siq bo'lishi bilan izohlashgan. Ushbu natijalar quyidagi rasmda keltirilgan.



3-rasm. «Talabalik pozitsiyasi» rivojlanishiga to'siq bo'luvchi omillar

Tadqiqotdagi so'rovnomalardan olingan natijalar asosida talabalik pozitsiyasini aniqlashga qaratilgan metodikalar tahlillari quyidagi jadvallarda ifodalangan. Tadqiqotda qatnashgan talabalarning pozitsion shakllanishini o'rganish maqsadida

o'quv motivatsiyani tashxislashni maqsad qildik. Quyidagi jadvalda natijalar keltirildi.

1-jadval

A.A.Rean, V.A.Yakunin, N.T.Badmaevalarning «Talabalarining o'quv motivatsiyasini diagnostika qilish» so'rovnomasi natijalari, kurslar kesimida
(Mann Uitni mezoni asosida, n=287)

Shkalalar	Kursi	N	O'rtacha rang	U	P
Muloqot	1-2-kurs	156	126,62	7507,000	0,000**
	3-4-kurs	131	164,69		
	Jami	287			
Qochish	1-2-kurs	156	167,74	6514,500	0,000**
	3-4-kurs	131	115,73		
	Jami	287			
Obro'	1-2-kurs	156	161,36	7510,500	0,000**
	3-4-kurs	131	123,33		
	Jami	287			
Kasbiy	1-2-kurs	156	147,13	9730,500	0,478
	3-4-kurs	131	140,28		
	Jami	287			
Ijodiy	1-2-kurs	156	150,09	9268,500	0,159
	3-4-kurs	131	136,75		
	Jami	287			
Ta'lim	1-2-kurs	156	123,18	6970,500	0,000**
	3-4-kurs	131	168,79		
	Jami	287			
Ijtimoiy	1-2-kurs	156	138,59	9374,000	0,224
	3-4-kurs	131	150,44		
	Jami	287			

Izoh: *p≤0,05; **p≤0,01

A.A.Rean va V.A.Yakunin, N.T.Badmayevalar tomonidan moslashtirilgan «Talabalarining o'quv motivatsiyasini diagnostika qilish usullari» metodikasining «Muloqot» shkalasida ishonchli darajadagi tafovutlar kuzatildi (U=7507; p≤0,01). Natijaga ko'ra, yuqori bosqichlarda quyi bosqichlarga qaraganda o'quv motivatsiyasida muloqotning o'rni yuqori ifodalanar ekan. Buni izohlashda aytish mumkinki, yuqori bosqich talabalar uchun o'quv motivatsiyasida muloqotning ta'siri katta ahamiyatga ega bo'lib, ushbu bosqichda talabalar shaxsiy va kasbiy jihatdan o'zini rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratishadi.

Mazkur metodikaning «qochish» shkalasida ishonch darajasidagi farqlar kuzatildi (U=6514; p≤0,01). Metodika natijasiga asosan, quyi kurslarda qochish motivi yuqori ifodalanar ekan. 1-2-bosqich talabalaridagi **qochish motivatsiyasining asosiy sabablari sifatida** yangi muhitga moslashishdagi qiyinchiliklar, akademik yuklamaning ko'pligi va murakkabligi, yoki, ota-onalar yoki yaqinlarning haddan tashqari bosimi, shaxsiy ehtiyoj va qiziqqan yo'nalishda o'qimasligi kabilarni asosiy sabab sifatida baholashimiz mumkin. Birinchi va ikkinchi kurs talabalarida o'quv

motivatsiyasida qochish shkalasi ular yo‘nalganligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘rovnomaning «Obro‘» shkalasida ham ishonchli darajadagi tafovutlar kuzatildi ($U=7510,5$; $p \leq 0,01$). Natijaga asosan quyi kurslarda o‘quv motivatsiyasida o‘bro shkalasining yuqori ifodalanishi yuqori kurslarga qaraganda kuchliroq ifodalanar ekan. Quyi bosqich talabalarida o‘quv motivatsiyasining «obro‘ shkalasi» ularning o‘qishdagi muvaffaqiyatni ijtimoiy maqom yoki obro‘ qozonish vositasi sifatida qabul qilish darajasini aks ettirishi mumkin.

Tadqiqotda talabalarda o‘z-o‘ziga munosabatni aniqlash maqsadida V.V. Stolin, S.R. Panteleyevlarning «O‘z-o‘ziga munosabatni aniqlash» so‘rovnomasi o‘tkazildi va natijalar 2- jadvalda keltirildi.

2-jadval

Talabalarining V.V. Stolin, S.R. Panteleyevning «O‘z-o‘ziga munosabat» metodikasi, Mann Uitni mezonni asosida ($n=287$)

Shkalalar	Kursi	N	O‘rtacha rang	U	P
S-integral shkala	1-2-kurs	156	152,61	8875,000	0,048*
	3-4-kurs	131	133,75		
O‘z-o‘zini hurmat qilish	1-2-kurs	156	175,25	5343,000	0,000**
	3-4-kurs	131	106,79		
Autosimpatiya	1-2-kurs	156	172,36	5794,000	0,000**
	3-4-kurs	131	110,23		
Boshqalardan kutilgan munosabat	1-2-kurs	156	105,99	4288,000	0,000**
	3-4-kurs	131	189,27		
Shaxsiy manfaat	1-2-kurs	156	132,72	8458,500	0,009**
	3-4-kurs	131	157,43		
O‘ziga ishonch	1-2-kurs	156	141,11	9766,500	0,482
	3-4-kurs	131	147,45		
Boshqalarning munosabati	1-2-kurs	156	144,55	10132,500	0,891
	3-4-kurs	131	143,35		
O‘z-o‘zini qabul qilish	1-2-kurs	156	129,09	7891,500	0,000**
	3-4-kurs	131	161,76		
O‘z-o‘zini boshqarish	1-2-kurs	156	176,67	5121,500	0,000**
	3-4-kurs	131	105,10		
O‘z-o‘zini ayblash	1-2-kurs	156	134,36	8714,500	0,020*
	3-4-kurs	131	155,48		
	1-2-kurs	156	114,76		
Shaxsiy manfaatlar	3-4-kurs	131	178,82	5656,000	0,000**
	1-2-kurs	156	185,87		
O‘z-o‘zini anglash	3-4-kurs	131	94,15	3687,000	0,000**

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

«O‘z-o‘ziga munosabat» metodikasining shkalalarini tahlil qilganimizda, 1-2 kurs va 3- kurs talabalarida S-shkala, ya’ni subektning «Men»ga nisbatan integral munosabatda ishonchli farqlar mavjudligi kuzatildi ($U=8875$; $p \leq 0,05$). Mazkur tahlilda aytish mumkinki, talabalikka qabul qilingan va o‘quv jarayonini davom ettirayotgan talabalarda o‘z-o‘zini anglash va yaxlit bir tizim sifatida tushunishga

bo'lgan intilish bevosita quyi bosqichlardagi talabalarda yuqoriligini shu bilan izohlash mumkinki, talabalik baxtiga erishish, u uchun qiyin vazifani uddalashdek ma'suliyatni his qilishi, «Men»ga munosabatda talabalikni shaxsiy yutuq sifatida qabul qilinish darajasi bilan bog'lashimiz mumkin. Tabiiyki, yuqori kurslarda o'z «Men»ini anglash mutaxassislikda qo'yiladigan talablarni aniq tushunishi, bu borada ma'suliyatni ko'proq his qilinishi bilan bog'liqdir.

Shuningdek, so'rovnomaning «O'z-o'zini hurmat qilish» shkalasida ham ishonchli darajadagi tafovutlar aniqlandi ($U=5343$; $p\leq 0,01$). Natijalarga asosan, 1-2 kurslarda o'z-o'zini hurmat qilish yuqori bosqich talabalariga qaraganda yuqori ko'rsatkichni tashkil qilgan. Buni shu bilan izohlash mumkinki, boshlang'ich kurslardagi o'quv motivlari, yangi shaxslararo munosabatlar va xulq-atvorning namoyon bo'lishida turli xil ijobiy psixologik holatlar o'ziga nisbatan ishonchning ortishi va hurmat qilishi bilan bog'liq. Metodikaning «Autosimpatiya» shkalasida ham ishonchli darajadagi tafovutlar kuzatildi ($U=5794$; $p\leq 0,01$). Natijalarga ko'ra pastki kurslarda yuqori kurs talabalariga nisbatan autosimpatiya darajasi, ya'ni, o'zini tushunish va hissiyotlariga nisbatan ijobiy munosabat bildirish qobiliyati yuqori ko'rsatkichni ifodalagan. Bunga asosan izohlash mumkinki, talabalikda o'z-o'zini anglash va identifikatsiya jarayoni jadal kechishini hisobga olsak, pastki kurslarda oliy ta'limga qabul qilinganligi, muvaffaqiyatining his qilinishi aytosimpatiyaning ijobiylashishiga sabab bo'lar ekan.

«O'z-o'ziga munosabat» metodikasining shkalalarini tahlil qilganimizda, 1-2 bosqich va 3-4 bosqich talabalarida S-shkala, ya'ni subektning «Men»ga nisbatan integral munosabatda ishonchli farqlar mavjudligi kuzatildi ($U=8875$; $p\leq 0,05$). Mazkur tahlilda aytish mumkinki, talabalikka qabul qilingan va o'quv jarayonini davom ettirayotgan talabalarda o'z-o'zini anglash va yaxlit bir tizim sifatida tushunishga bo'lgan intilish bevosita quyi bosqichlardagi talabalarda yuqoriligi shu bilan izohlanadiki, talabalik baxtiga erishish, u uchun qiyin vazifani uddalashdek ma'suliyatni his qilishi, «Men»ga munosabatda talabalikni shaxsiy yutuq sifatida qabul qilinish darajasi bilan bog'lashimiz mumkin. Tabiiyki, yuqori kurslarda o'z «Men»ini anglash mutaxassislikda qo'yiladigan talablarni aniq tushunishi, bu borada ma'suliyatni ko'proq his qilinishi bilan bog'liqdir.

Shuningdek, so'rovnomaning «O'z-o'zini hurmat qilish» shkalasida ham ishonchli darajadagi tafovutlar aniqlandi ($U=5343$; $p\leq 0,01$). Natijalarga asosan, pastki kurslarda o'z-o'zini hurmat qilish yuqori kurs talabalariga qaraganda yuqori ko'rsatkichni tashkil qilgan. Buni shu bilan izohlash mumkinki, boshlang'ich bosqichlardagi o'quv motivlari, yangi shaxslararo munosabatlar va xulq-atvorning namoyon bo'lishida turli xil ijobiy psixologik holatlar o'ziga nisbatan ishonchning ortishi va hurmat qilishi bilan bog'liq. Metodikaning «Autosimpatiya» shkalasida ham ishonchli darajadagi tafovutlar kuzatildi ($U=5794$; $p\leq 0,01$). Natijalarga ko'ra pastki kurslarda yuqori kurs talabalariga nisbatan autosimpatiya darajasi, ya'ni, o'zini tushunish va hissiyotlariga nisbatan ijobiy munosabat bildirish qobiliyati yuqori ko'rsatkichni ifodalagan. Bunga asosan izohlash mumkinki, talabalikda o'z-o'zini anglash va identifikatsiya jarayoni jadal kechishini hisobga olsak, pastki bosqichlarda

oliy ta'limga qabul qilinganligi, muvaffaqiyatining his qilinishi aytosimpatiyaning ijobiylashishiga sabab bo'lar ekan.

So'rovnomaning «Boshqalardan kutilgan munosabat» shkalasida ham ishonchli farqlar mavjudligi kuzatildi ($U=4288$; $p\leq 0,01$). Natijaga asosan yuqori bosqichlarda boshqalardan kutilgan munosabat yuqori darajada ifodalanar ekan. Demak, yuqori kursda tahsil olayotgan **talabalarda munosabatning shakllanishi** jamiyatda o'z o'rnini anglashga, ijtimoiy munosabatlar o'rnatishga va shaxsiy rivojlanishga bo'lgan ehtiyojlari bilan bog'liq holda ifodallasak, bu davrda talabalar boshqalar tomonidan qo'llab-quvvatlanishga, hurmat va tan olinishga kuchli ehtiyoj sezadilar.

Metodikaning «Shaxsiy manfaat» shkalasida ham ishonchli darajadagi tafovutlar kuzatildi ($U=8458$; $p\leq 0,01$). Yuqori kurs talabalarida pastki kursda tahsil olayotgan talabalarga nisbatan shaxsiy manfaat yuqori ko'rsatkichda ifodalanar ekan. Aytish mumkinki, yuqori kurs **talabalarida shaxsiy manfaat** tushunchasi shaxsning o'z kelajagi, kasbiy maqsadlari va shaxsiy rivojlanishi bilan bog'liq motivatsiyalarini ifodalab, bu odatda, hayotiy maqsadlarini aniqroq belgilay boshlashi va o'z manfaatlarini amalga oshirishga ko'proq e'tibor qaratishi bilan izohlashimiz mumkin. So'rovnomaning «O'z-o'zini qabul qilish» shkalasida ham ishonchli darajadagi tafovutlar kuzatildi ($U=7891$; $p\leq 0,01$). Yuqori kurs talabalarida o'z-o'zini qabul qilish 1-2 kurs talabalariga nisbatan yuqori ifodalanar ekan. Fikrimizcha, yuqori bosqich talabalarida o'z-o'zini qabul qilish darajasi bevosita yosh xususiyatlariga bog'liq tarzda o'z imkoniyatlarini, kuchli va zaif tomonlarini tan olinishi, ularga nisbatan real munosabatning shakllanishi bilan bog'lashimiz mumkin.

Metodikaning shkalalarini tahlil qilganimizda, yuqori va quyi bosqich talabalarda «O'z-o'zini boshqarish» shkalasida ishonchli farqlar mavjudligi kuzatildi ($U=5121,5$; $p\leq 0,01$). Natijalarga ko'ra, ushbu shkalada quyi kurslarda yuqori kurs talabalariga qaraganda o'z-o'zini boshqarish ehtiyoji yuqori darajada ifodalanar ekan. Hamda «O'z-o'zini ayblash» shkalasida ham ishonchli darajadagi tafovutlar kuzatildi ($U=8714,5$; $p\leq 0,05$). Natijalarga asosan, yuqori bosqich talabalarida o'zini ayblash tuyg'usi yuqori ifodalanar ekan. Aytish mumkinki, yuqori kurs talabalarida o'zini boshqarishda ichki nazorat ustunligini hisobga oladigan bo'lsak, ilmiy va amaliy tajribalariga asoslangan holda hayotiy muammolarni hal etish imkoniyati, o'z xatti-harakatlarini nazorat qilishi, har bir ishni puxta reja asosida bajarishi hamda mas'uliyat xissi bilan bog'lash mumkin. So'rovnomaning «Shaxsiy manfaatlar» shkalasida ham ishonchli darajadagi tafovutlar kuzatildi ($U=5656$; $p\leq 0,01$). Natijaga ko'ra, yuqori kurslarda shaxsiy manfaatlar shkalasi quyi kurslarga qaraganda kuchliroq ifodalanar ekan. Chunki, yuqori bosqich talabalarida kasbiy motivatsiya jihatidan kelajakdagi kasbiy rivoji uchun zarur bilim va ko'nikmalarni egallashga intilish, shuningdek, o'z bilimlari orqali daromad topish istagi bilan ifodalanadi.

Metodikaning «O'z-o'zini anglash» shkalasida ham ishonchli darajadagi farqlar kuzatildi ($U=3687$; $p\leq 0,01$). Metodika natijasiga ko'ra, 1-2 kurslarda yuqori kursga nisbatan o'z-o'zini anglashga ehtiyoj yuqori darajada ifodalanar ekan. Talabalik davrida quyi kurslarni yosh ifodalanishiga ko'ra o'spirinlik davri bilan bog'laydigan bo'lsak, ushbu davr o'zining qator betakror xususiyatlari va qarama-qarshiliklari bilan ajralib turadi.

Talabalarda pozitsion shakllanishni o'rganish va o'zgarishlarni tahlil qilish orqali ma'lum bir ta'sirlar rollarga yoki «talabalik pozitsiyasi»ga ta'sir qiladimi yoki yo'qmi? Bu savollarga javob olish maqsadida tadqiqotimizda olingan psixodiagnostik so'rovnomalarning korrelyatsion aloqadorligi o'rganildi. Quyida Reanning «Talabalar o'quv motivatsiyasini aniqlash» so'rovnomasi ko'rsatkichlari hamda Yu.E.Aleshina, L.L.Gozman, M.V.Krozning «O'z-o'zini namoyon qilish» (SAT) so'rovnomasi o'rtasidagi aloqadorlikni 3-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Mazkur jadvaldagi korrelyatsion aloqadorlik tekshirilganda, muloqot shkalasi bilan vaqtni yo'naltirish ($r=0,150$; $p\leq 0,05$), qiymat ($r=0,208$; $p\leq 0,01$), g'oyalar ($r=0,299$; $p\leq 0,01$), agressiyani qabul qilish ($r=0,159$; $p\leq 0,01$) kabi shkalari o'rtasida ijobiy aloqadorlik, qo'llab-quvvatlash ($r=0,231$; $p\leq 0,01$), sinergiya ($r=0,134$; $p\leq 0,01$), ijodkorlik ($r=0,125$; $p\leq 0,05$) ko'rsatkichlari bilan esa manfiy bog'lanish aniqlandi. Natijaga ko'ra, talabalarda OTMda tahsil olishning asosiy motivi sifatida muloqotning oshishi ularda vaqtni yo'naltirish, qadriyat va g'oyalarini, boshqalarning agressiyasini qabul qilishni mos holda rivojlanishga olib kelar ekan. Muloqotchanlikning kamayishi esa qo'llab-quvvatlash, sinergiya va ijodkorlikni oshishiga ta'sir qiladi.

3-jadval

Reanning «Talabalar o'quv motivatsiyasini aniqlash» so'rovnomasi va Yu.E.Aleshina, L.L.Gozman, M.V.Krozning «O'z-o'zini namoyon qilish» (SAT) so'rovnomasi shkalalari o'rtasida korrelyatsion aloqadorlik
(Spirmen mezonini asosida $n=287$)

Shkalalar	Muloqot	Qochish	Obro'	kasbiy	Ijodiy	Talim	Ijtimoiy
Vaqtni yonaltirish	,150*	,122*	179**	,228**	-,032	,014	-,058
Qollab-quvvatlash	-,231**	,283**	,107	-,189**	,153**	-,101	,219**
Qiymat yonalishi	,208**	-,180**	166**	,228**	-,182**	,223**	,379**
Xulq-atvor moslashuvchanligi	,016	-,284**	,438**	-,109	,074	,300**	-,032
Sezuvchanlik	,064	-,076	,122*	,036	-,113	,094	,011
Spontanlik	-,071	-,394**	,262**	-,204**	,118*	-,131*	-,072
Ozini hurmat qilish	,002	-,327**	,192**	-,016	-,155**	,227**	,120*
Ozini qabul qilish	-,084	-,109	064	,109	-,072	-,034	,021
Goyalar	,299**	,052	170**	,243**	-,129*	,348**	,180**
Sinergiya	-,134*	-,148*	,454**	-,355**	,087	,186**	-,240**
Agressiyani qabul qilish	,159**	,097	330**	,229**	-,073	-,123*	,045
Kontakt	,052	-,235**	,269**	-,090	,049	,372**	,006
Kognitiv ehtiyojlar	-,052	-,179**	,060	-,065	,039	,298**	,204**
Ijodkorlik	-,125*	,065	,054	-,145*	,319**	-,002	-,121*

So‘rovnomalar o‘rtasidagi korrelyatsion aloqadorlik tekshirilganda, qochish shkalasi bilan vaqtni yo‘naltirish ($r=0,122$; $p \leq 0,05$), qo‘llab-quvvatlash ($r=0,283$; $p \leq 0,01$) o‘rtasida ijobiy aloqadorlik, qiymat ($r=0,180$; $p \leq 0,01$), xulq-atvor ($r=0,284$; $p \leq 0,01$), spontanlik ($r=0,394$; $p \leq 0,01$), o‘zini hurmat qilish ($r=0,327$; $p \leq 0,01$), sinergiya ($r=0,148$; $p \leq 0,05$), aloqa ($r=0,235$; $p \leq 0,01$) va kognitiv ehtiyojlar ($r=0,179$; $p \leq 0,01$) shkalalari bilan esa manfiy aloqadorlik aniqlandi. Buni shunday izohlashimiz mumkin, akademik yuklamalardan qochishning oshishi vaqtni sarflash, quvvatlashning ham oshishiga, xulq-atvor, spontanlik, o‘zini hurmat qilish, sinergiya, aloqa va kognitiv ehtiyojlarning pasayishiga sabab bo‘lar ekan.

Universitetda o‘qish motivi jamiyatda talabaning mavqe, obro‘cini belgilashi shkalasi bilan vaqtni yo‘naltirish ($r=0,179$; $p \leq 0,01$), qiymat ($r=0,166$; $p \leq 0,01$), xulq-atvor moslashuvchanligi ($r=0,438$; $p \leq 0,01$), sezuvchanlik ($r=0,122$; $p \leq 0,05$), spontanlik ($r=0,262$; $p \leq 0,01$), o‘zini hurmat qilish ($r=0,192$; $p \leq 0,01$), g‘oyalar ($r=0,170$; $p \leq 0,01$), sinergiya ($r=0,454$; $p \leq 0,01$), aloqa ($r=0,269$; $p \leq 0,01$) shkalalari o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi.

Universitetda o‘qish motividan kasbni egallashga harakat qilish vaqtni yo‘naltirish ($r=0,228$; $p \leq 0,01$), g‘oyalar ($r=0,243$; $p \leq 0,01$), agressiyani qabul qilish ($r=0,229$; $p \leq 0,01$) shkalalari bilan musbat aloqadorlikda, qo‘llab-quvvatlash ($r=0,189$; $p \leq 0,01$), spontanlik ($r=0,204$; $p \leq 0,01$), sinergiya ($r=0,355$; $p \leq 0,01$) va ijodkorlik ko‘rsatkichlari bilan manfiy korrelyatsion bog‘lanishga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Oliygo‘hda o‘qishiga ijodiy salohiyatni oshirish, deb qaraydigan sabab ko‘rsatkichi qo‘llab-quvvatlash ($r=0,153$; $p \leq 0,01$), qiymat yo‘nalishi ($r=0,182$; $p \leq 0,01$), spontanlik ($r=0,118$; $p \leq 0,05$), o‘zini hurmat qilish ($r=0,155$; $p \leq 0,01$), g‘oyalar ($r=0,129$; $p \leq 0,05$) va ijodkorlik ($r=0,319$; $p \leq 0,01$) bilan ijobiy aloqadorlikda ekanligi aniqlandi.

